



SCOPE OF THE WORK OF POETS AND WRITERS OF NORTH AFGHANISTAN IN THE XIX-XX CENTURIES

Sebghatullah Niazi¹

¹TerDU 2-year master's degree

Email: sebghatullahnizazi@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4996434>

ARTICLE INFO

Received: 05th June 2021

Accepted: 10th June 2021

Online: 15th June 2021

KEY WORDS

North, Afghanistan, poets, writers, society, ignorance, country, Quran.

ABSTRACT

In this article, we will look at the genres of poets and writers of northern Afghanistan in the XIX-XX centuries, and what features they have, along with the art of image creation. We can see in his poems what he pays attention to and what he appeals to.

XIX-XX ASR SHIMOLIY AFG'ONISTON SHOIR VA YOZUVCHILARI IJODI MAVZUI KO'LAMI

Sebghatullah Niazi¹

¹TerDU 2-kurs magistranti

E-mail: sebghatullahnizazi@gmail.com

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-iyun 2021

Ma'qullandi: 10-iyun 2021

Chop etildi: 15-iyun 2021

KALIT SO'ZLAR

Shimoliy, Afg'oniston, shoirlar, yozuvchi, jamiyati, g'aflat, mamlakat, Qur'oni karim.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX-XX-asr shimoliy Afg'onistonning, shoir va yozuvchilarini ijodi mavzusida qanday janrlarda ijod qilgan va ularni obraz yaratish mahorati bilan birga qanday xususiyatlarga ega bo'lganini ko'ramiz. She'riy namunalarida nimalarga e'tibor berishi va nimalarga murojaat qilishini ko'rishimiz mumkin.

Jamiyat hayotining ta'siri har bir shoir va yozuvchi uchun katta hodisa, hayot kechirish va tirikchilik qilish ham bu dunyoning usul- qoidalaridan biri. Biz dunyoda turli xil hodisalarga duch kelamiz, ba'zan noto'g'ri siyosat, zulm hukumronligi, yoki axloqiy-diniy masalalar

ijodkorlarni qalam terbatishiga sabab bo'ladi. Jamiyatda mavjud bo'lgan barcha voqealarni ular o'z qalami bilan aks ettirgan va turli xil hayotiy holatlarni she'rlari orqali bayon qilgan. Biz bu ijodkorlarni mamlakat buylab eng qadrlig insonlar deb bilamiz. Ularning insonlar



hayotiga jiddiy qarashlari, bu boradagi fikr-mulohizalari jamiyat muammolarini yoritishga xizmat qilgan, ijodkorlarning lirik ifodalari, tavsif va ta'riflari, badiiy bayonlari Afg'on fuqarolari hayotidagi qator real mushkulotlarni yechimini korsatganday bo'ladi. Bunday mulohazalarni barcha shoir va yozuvchilar ijodida ko'rishimiz mumkin. Shimoliy Afg'oniston hududlarida yashab ijod etgan taniqli shoir ustoz Abulxayr Xayriyning "Qur'oni karimning o'zbekcha tafsiri" kitobi bevosita axloq-adob va ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan bolib, ushbu asarda insonlarni ozida eng yaxshi xislatlarni jam etgani va ularning qilgan yaxshi amallarini maqtab ularni targ'ib etadi, aksincha, yaramas qiliqlarni joriy qilgan insonlarni esa tanqid etadi. Abulxayrining yana bir "12 ming baytni o'z ichiga olgan O'zbek va Dariy tilidagi she'rlar devoni"¹ kitobida, she'rlarining mafhumi, sevgi-muhabbat, g'ofil inson va hamda zulim-zurovarlik, muhitning ijtimoiy-siyosiy voqiyalarni tasvirlaydi va muammolarni echimini tushutirishga harakat qiladi.

Mamlakatning taniqli yozuvchisi To'raxon o'g'li Zikrulloh Ishonch o'zining "O'zbek Adabiyoti Farhangi" asarida o'zbeklarning madaniyati, urf-odati, turmush tarzi masalalarida so'z yurutadi va bohsqa yashab ijod etgan shoir va yozuvchirni tarixiy nuqtai-nazaridan bayon etadi hamda o'zbek adabiyotning shakllanishini davrini va undagi ijodkorlarning ijodiy yosinlari, badiiy xususiyatlarini tadqiq qiladi. Yozuvchi o'zini yana bir tilshunoslikka bag'ishlab yozgan "Hozirgi O'zbek adabiy tili" asarida hozirgi o'zbek tili va uning shakllanishi

haqida so'z yurutadi. So'zning shakl va mazmun jihatdan unga katta e'tibor berishni uqtiradi va ta'kidlaydi. Shimoliy Afg'on hududlarida joylashgan Sare-pul viloyatida yashab ijod etgan shoir Jamila Isor o'zining "Bahor Orzsida" nomli asarida inson va hayot haqidagi falsafiy qarashlarini o'z fikrlarida shunday ifodalaydi: "Insonning borlig'i- hayotning borlig'i va uning o'zligi" deb soz yurutadi. Tabia't va jamiyat hodisalarini idealistlaracha mushohada qiladi. Xalqchillikni, insonparvarlikni birinchi bosh maqsad deb qaraydi.

Muhammad Amin Uchqun Maymanagi taniqli zullisonayn shoirlardan biri bolib, o'zining "Suxanvaron Maosir" nomli asarida barcha hikmatli so'zlarni izlab, ularni to'playdi, ularni tadqiq etishga harakat qiladi, har bir so'zga ma'no jihatdan, hikmat jihatdan o'ziga yarashar izoh bergan. Mulk-davlat, shon-shavkat insonning xulqini isbotlamaydi, balki uning bunga dang bo'lib shu ne'matlardan qanday holatlarda foydalanganlik masalalariga ertangi kunda javob kutadi. Taniqli shoir va yozuvchi Alhoj Sadriddin Intizor Javzijoniy o'zining "Gulshan ichra", "Ganji jovidon", "Qo'shiqlar saltanati" asarlari bilan turli xil ijtimoiy-hayotiy, moddiy-ma'naviy masalalar haqida fikr yuritib, odamlarning yaxshi-yomon xislatlarini va insoniy faziliyatlarini she'rlari orqali ifoda qiladi, bir nasriy she'rda: "Yaxshi kishi ehtiyojmandlarga ko'mak berishi, ularga betama', manfa'tli yordam qo'lini cho'zishi kerak" deb aytadi.

Afg'oniston eski zamonlardan buyon she'riyat, adabiyot va san'at makoni bo'lib kelgan. Mamlakatning ana shu so'z zahmatkashlari hududda she'riyat va madaniyat shakllanishiga xizmat qilagan. Jumladan, G'ulom Muhammad

¹" Sarepul deruz imruz va fardo " 2015 Sarepul



Maymanagi, Mavlono Qurbat, Zohir Forobiy, Ergash Uchqun, Abulxayr Xayriy, Nodim Qaysori, Domulloh Bedil, Mavlono Javhariy, Favziya Yaldo, Shohqul Sufiy, Nafir Forobiy, Mavlono Qur'an, Rahim Ibrohimlar ana shunday adiblar jumlasidandir. Bu ijodkorlar o'zlaridan ko'plab turli xil mavzulardagi nasriy va nazmiy asarlar qoldirgan, Xususan, Mavlono Abdur Rashid Javhariyning "Javzjon quyoshi" asarida Javzjon viloyatining barcha ijodkorlarini jamlab ularning hayoti va ijodi haqida tazkira tuzgan va tazkira janrini rivojlantirishga o'zining hissasini qo'shgan. "Fonusi Xuroson" nomli devonida shoir Afg'on xalqining ziddiyatli hayoti, mamlakatdagi siyosiy inqiroziy holatlar, xalqning milliy hissiyotlaridagi o'zgarishlar, erlik insonlarni o'z qadriyatlariga bo'lgan muhabbati va boshqa jihatlar haqida kuylaydi. "Mavludiya Muhammadiya", "Musulmonchilik yo'li" kabi asarlari diniy mavzuda yozilgan bo'lib, unda Islom dinining qoida-qonuniyatlarga katta e'tibor qaratgan va Imon shartlarini ta'rif-tavsif qilgan. "Ibn Yaman" kitobida esa shoir Ibn Yamanning hayoti va adabiy faoliyati haqida so'z yuritib uning ijodiy merosini jamlab o'zbek tilida chop etgan. Mavlono Abdur Rashid Javhariy Mullo Muhammad Qulning (Rangin Kamon) she'riy to'plami, Qozi Bobo Murodning (Sirojul Tavorix) asari, Sayd Fozil G'amginning "Qazo" asari va Mirzo Muhammad Yahyoning (Kulilot) asarlari ustida badiiy tahlil olib boradi va ushbu ijodkorlarning ijodini keng miqyosda sharhlaydi. Bunga tashqari Javhariy so'z sana'tkorlari oldiga kitobxonlarning ehtiyojlariga mukammal javob bera oladigan, ularning tafakkur tarzini o'stiruvchi, rivojlantiruvchi asarlar yaratish lozim degan talablarni quyadi.

²Olim va shoir Rahim Ibrohimning "Inson chashmu chirog'i ofarinish", "Qasidayi foniy", "Qon bilan yozilgan xat", "Shirin" kabi asarlari lirik janrlarda yozilgan bolib, ushbu to'plamdagi she'rlarida hozirgi davr Afg'onistonda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, diniy-axloqiy hamda vatanparvarlik masalalari xususida yozadi. Ijodkorning "Devoni Mahviy Qaysoriy" kitobi shoir Mahviy Qaysoriyning hayoti va ijodini keng yoritishga qaratilgan. "Maqollar usuli" asarini esa xalq og'zaki ijodidagi maqollarni to'plab ularni chop etishga bag'ishlagan. Adibning "Suri qalam Tafsihi" asari islom dinining shariati va boshqa masalalarining tahlili va tafsihiga bag'ishlangan. "Chumchuqcha" nomli hikoyalar to'plami bolalar uchun mo'ljallab yozilgan axloqiy-ta'limiy didaktik hikoyatlardan tashkil topgan. "Ruboiyoti Zahir Foryobiy" asari Afg'on klassik shoiri Zahir Farobiyning ruboiylarini tadqiqiga bag'ishlangan bolib, Rahim Ibrohim ushbu shoirning barcha ruboiylarini to'plab nashr qilgan.

"Navoiy shaxsiyati peshgom dar masoyili huquqi" asari ijodkorning ilmiy asarlaridan biri bo'lib, ushbu asarida Navoiyning inson huquqlariga doir qarashlarini e'tirof etishga qaratilgan. "Bobur haqida" yozilgan ilmiy kitobi ham Boburning Afg'onistonda amalga oshrgan turli sohalardagi ishlari, obodonchiliklari haqida yozilgan. "Farhangi lug'oti O'zbekiy" asari esa shimoliy Afg'oniston hududida yashidigan O'zbeklarning tilidagi so'zlarning izohiga, ya'ni qomusi lug'atshunoslikka bag'shilab yozilgan kitobidir.

Shuningdek, Shoirning lirik she'rlarida ma'noga, hikmatga to'la rang-

² -"Adabiyot o'zbeki Afg'oniston"2011 Qobul



barng tasvirlar bor, u yaratgan turli xil qiyofaga ega obrazlar esa o'qiuvciga estitek ta'sir etmasdan qolmaydi:

Yotibsan, hodisalar devor ustida,

Zamon jodugari minglab duo ustida.

Ko'zingga tomizar uyqu va g'aflatni,

Zamon paymonasi afsuski to'lgan.

"G'aflat" she'ridan

Bu she'riy parchada shoir rahbarlarga murojiat qilib barcha g'aflatda qolgan shxslar holatlarini shunday tasvirlagan; Sen bu dunyoning hodisalaridan ogohsiz yotibsan, zamonaning qanday bo'lganini, nodon jodugarlardan suraysan deb, savodsiz maslahatchilarni aldoqchi jodugara uxshatgan va o'zining hikmatli noyob so'zlari bilan rahbarlarni ogohlikka chaqirgan. Keying misrasida bu zamonaning paymonasi to'layotgaligi va sen uyqu-g'aflatda yotibsan, turgin, o'yg'on, ko'zingni kattaroq och, yonigdagi "jodugar"laring seni aldaydi, deb Jodugarlarn firibgar, yolg'onchi, huqqaboz deb qattiq tanqid qiladi va nodon maslahatchilarni rahbarga foydasiz fikrlarni fatvo beruvchi, deb yozadi.

Shafiqa Yorqin Deboch ijodlarida jamiyatning barcha muammolari masalalariga ta'sirli ijobiy fikrlar bildirgan, uning "Epik qanot qaldirg'och" Qobul (2011-yil) she'ri to'plamida lirik janrlarda mahoratin. Mazkur ijodkor yaratgan asarlarda "Navoiy siymosi"(1991-yil), Navoiyning tafakkuri, jamiyatga bo'lgan ijobiy "Bobur manguligi"(1993-yil) "Turkiy tillar so'zligi" (1993-yil), "Komron Mirzoning hayoti va ijodi", (1999-yil), shunda adibning ijod qobiliyati va badiiy asar yaratish mahorati bizga namoyondir.

Ijodkorning asosiy maqsadi o'tmishdagi yaratilgan asarlarni eskirib ketmasligi uchun qayta o'qish maqsadida sharhli izohlar bergan. Bu o'tmishdagi bilimdon va mutafakkurlarni adabiy merosini Afg'on xalqi bilishi kerak degani uchun, Shafiqa Yorqin yordami bilan qayta chiqarilgan.Yorqinning " Navoiy siymosi" asarida namuna keltirgan.

Na'fing agar xalqqa beshak durur,

Balki bu na'f o'zingiz ko'prak durur,

Ayni holatda aksincha, kishi o'zgalariga yomonlik qilsda, birincha navbadda o'ziga yomonlik qilgan bo'ladi. Haqiqiy inson eil-yurtiga naf etkazishga harakat qilishadi, qo'ldan kelgancha insonlarga manfiat etkazish va shirin so'zlari bilan madad berishadilar.

Per o'zbek mared Afg'on shud,

Munda gel delta rasha mehmon shud,

Har faqiri ki omad az kobul

seyr maliki o'zbekiston shud,

Mirzo Niyoziyning g'oyavi mafkurasi eil-yurtga katta etibor birilgan, o'zining yurtiga mehr bergan, yuqoridagi she'r buni isbotlaydi. O'zbek xalqining buyuklari bugun Afg'on bo'ldi, birda kel digan so'zning o'rniga Pushtun tilida daltarasha(birda gil) ishlatildi, Qobuldan kelgan har bir kishi bugun o'zbek deb nom oldi.

Qori Muhammad Azim Azimiyning "3 misralari o'nming atrofida bo'lgan to'liq devoniga ega. Ushbu miqdordagi she'rni yozgan shoir tug'ma iste'dodlarga ega. chunki ba'zida she'riy va badiiy mohiyatga to'la qisqa she'r badiiy mohiyati bo'lmagan devondan ko'ra ko'proq qiymatga ega bo'lishi mumkin.

³ -WWW.alishir01@gmail.com ایمیل



Xulosa deb olgan taqdirda XIX-XX-asr Shimoliy Afg'onistonning shoir va yozuvchilarni ijodi namunalarida turli xil xarakter va obrazli janr mavjud. Ularning insonlar hayotiga jiddiy qarashlari, bu boradagi fikr-mulohizalari jamiyat muammolarini yoritishga xizmat qilgan, ijodkorlarning lirik ifodalari, tavsif va ta'riflari, badiiy bayonlari Afg'on fuqarolari hayotidagi qator real mushkulotlarni yechimini korsatganday bo'ladi. Bunday mulohazalarni barcha shoir va yozuvchilar ijodida ko'rishimiz mumkin. Mamlakatning ana shu so'z zahmatkashlari hududda she'riyat va madaniyat shakllanishiga xizmat qilagan. Jumladan, G'ulom Muhammad Maymanagiy, Mavlono Qurbat, Zohir Forobiy, Ergash Uchqun,

Abulxayr Xayriy, Nodim Qaysori, Domulloh Bedil, Mavlono Javhariy, Favziya Yaldo, Shohqul Sufiy, Nafir Forobiy, Mavlono Qurbat, Rahim Ibrohimlar ana shunday adiblar jumlasidandir. Bu ijodkorlar o'zlaridan ko'plab turli xil mavzulardagi nasriy va nazmiy asarlar qoldirgan, Xususan, Mavlono Abdur Rashid Javhariyning "Javzjon quyoshi" asarida Javzjon viloyatining barcha ijodkorlarini jamlab ularning hayoti va ijodi haqida tazkira tuzgan va tazkira janrini rivojlantirishga o'zining hissasini qo'shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Kozim Aminiy (" antolo`jisi"122)2020 Balx.
2. WWW.alishir01@gmail.com ايميل
3. Turkiston kelachaki(1392 hajriy mazorsharep)
4. Yurak sevgisi O'zbeki chopga tayor 1392 shaberg'on
5. Devoni ustoz mavlono Qurbat " Gulshani zebo" 1991 Qobul davlat matbuoti